
Farg'ona shahrida xorijlik mutaxassislar ishtirokida ta'lim marafoni o'tkazilmoqda

40-IDUMda 3-5 apreľ kunlari Rossiya Federatsiyasining Lomonosov nomidagi Shimoliy (Arktika) Federal universiteti tomonidan «SAFUda kelajak kasblari va raqamli texnologiyalar» mavzusidagi hamkorlik ta'lim marafoni o'tkaziladi.

Tadbir doirasidagi master-klasslarga qatnashish orqali ishtirokchilar raqamli texnologiyalar va kelajakda yanada rivojlanishi kutilayotgan kasblar haqida batafsil tanishadilar. Shuningdek, neyrotexnologiyalar, mobil dasturlar, Lending page, robototexnika, veb dasturlar, taqdimotlarni effektiv sozlash sirlari kabi bir qancha amaliy bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin.

Shuningdek, «SAFU» universiteti xodimlari tomonidan o'tkaziladigan olimpiyalarda qatnashib, u yerda ta'lim olish imtiyoziga ham ega bo'lishadi.

Unda viloyatimizning o'quvchilari hamda o'qituvchilari ishtirok etishlari mumkin. Master-klasslarni tashkil etish uchun Rossiyadan malakali mutaxassislar va «SAFU» xodimlari tashrif buyurishgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-04-05 11:06:17